



**OLIY TA'LIMDA MUTAXASSISLIK FANLARINI O'QITISHDA
MENTORLIK VA KOUCHINGNING O'RNI**

Samatova Umida

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Samarqand kampusi

1-bosqich magistranti

Ustozi Turumova Nilufar Erkinovna

Annotatsiya: Ta'limda mentorlik va kouching jarayonlari pedagoglarning shaxsiy qo'llab-quvvatlanishi va kasbiy rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ular yangi mas'uliyatlarni o'zlashtirish va professional ko'nikmalarni rivojlantirishda yordam beradi, bu esa o'qituvchilarni yangi rollarga tayyorlashda, ularning ish faoliyatini samarali boshqarishda va farovonligini oshirishda muhim omildir.

Kalit so'zlar: Ta'limda mentorlik va kouchinglik, kasbiy rivojlanish, professional ko'nikmalar.

Ta'limda mentorlik va kouching jarayonlari pedagoglarning shaxsiy qo'llab-quvvatlanishi va kasbiy rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ular yangi mas'uliyatlarni o'zlashtirish va professional ko'nikmalarni rivojlantirishda yordam beradi, bu esa o'qituvchilarni yangi rollarga tayyorlashda, ularning ish faoliyatini samarali boshqarishda va farovonligini oshirishda muhim omildir. Mentorlik va kouchingning asosiy foyda oluvchilari o'qituvchilar, yaqinda malaka olgan pedagoglarga katta yordam beradi. Biroq, ta'lim sohasida mentorlik va kouchingning pedagoglarning holistik farovonligi va uzluksiz rivojlanishini qo'llab-quvvatlashdagi o'rni haqida kam tadqiqotlar mavjud. Bu maqsadni amalga oshirish uchun ta'lim jarayonida ishlayotgan pedagoglarning o'z farovonligini qanday saqlashlari va bu farovonlikni o'qituvchi va talabalar bilan ishlashda qanday aks ettirishlari o'rganish zarur.

Shuningdek, ta'lim muassasalarida stressli va murakkab sharoitda ishlaydigan pedagoglarning ruhiy va jismoniy salomatligi, shuningdek, ularning professional salohiyati mentorlik va kouching yordamida qanday qo'llab-quvvatlanishi, bu jarayonlarning ta'lim muhitiga qanday ijobiy ta'sir ko'rsatishini chuqur tahlil qilish zarur. Mentorlik va kouching jarayonlari, nafaqat pedagoglarning, talabalar va hamkasblar farovonligini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mentorlik va kouching — bu har ikki jarayon ham hamkorlik va munosabatlarga asoslangan bo'lib, tajribali yoki malakali shaxs (mentor yoki kouch) kamroq tajribaga yoki malakaga ega bo'lgan shaxsni (mente yoki



kouchi) o'rganish, o'sish va muammolarni hal qilishda yordam berishadi. Biroq, ular turli maqsadlar, rollar va natijalarga ega. Mentorlik odatda uzoq muddatli va holistik munosabat bo'lib, mentee ning umumiy kasbiy rivojlanishini, shaxsiyligini va kareraga oid o'sishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Kouching esa odatda qisqa muddatli va aniq maqsadga qaratilgan munosabat bo'lib, kouchining ma'lum soha yoki vazifada maxsus ko'nikmalarini, samaradorligini yoki xulq-atvorini yaxshilashga mo'ljallangan. Mentorlik ko'proq norasmiy, moslashuvchan va o'zaro munosabatlarga asoslangan bo'lsa, kouching ko'proq tuzilgan, maqsadga yo'naltirilgan va yo'l-yo'riq beruvchi xususiyatga ega. Ilmiy adabiyotlarda mentorlikning samaradorligi ijtimoiy o'rganish nazariyasi konstruktivizm va reflektiv amaliyot yondashuvlari bilan asoslanadi.

Yuqoridagi nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, mentorlik va kouching pedagog farovonligini ta'minlashda strategik ahamiyatga ega bo'lgan yondashuvlar hisoblanadi. Ushbu yondashuvlar orqali ta'lim muassasalarida qo'llab-quvvatlovchi muhit shakllanib, pedagoglarning professional samaradorligi va shaxsiy farovonligi o'rtasidagi muvozanat ta'minlanadi. Mazkur maqola aynan ushbu nazariy asoslar negizida mentorlik va kouchingning ta'limdagi farovonlikka ta'sirini yoritishga qaratilgan.

QO'LLANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kutsyuruba, B., Walker, K.D., Stroud Stasel, R. and Al Makhamreh, M. (2019), "Developing resilience and promoting well-being in early career teaching: advice from the Canadian beginning teachers", Canadian Journal of Education, Vol. 42 No. 1, pp. 288-321
2. Aguilar, E. (2018), Onward: Cultivating Emotional Resilience in Educators, Jossey-Bass, San Francisco, CA.
3. Campbell, C., Osmond-Johnson, P., Faubert, B., Zeichner, K., Hobbs-Johnson, A., Brown, S., DaCosta, P., Hales, A., Kuehn, L., Sohn, J. and Stevensen, K. (2017), "The state of educators' professional learning in Canada: final research report", Learning Forward, Oxford, OH.